

**TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI  
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ASTRONOMIYA INSTITUTI  
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**RAYIMBAYEV DJAVLANBEK RADJAPBAYEVICH**

**ASTROFIZIK KUZATUVLAR ASOSIDA QORA O’RALAR  
PARAMETRLARINING GRAVITATSIYA NAZARIYALARIDAGI  
TAHLILI**

**01.04.02 – Nazariy fizika**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO’YICHA FAN DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2022**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of science (DSc) on physical  
and mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора физико-математических  
наук (DSc)**

**Rayimbaev Djavlanbek Radjabbaevich**

Astrofizik kuzatuvlar asosida qora o'ralar parametrlarining gravitatsiya nazariyalari  
tahlili

3

**Rayimbaev Djavlanbek Radjabbaevich**

Constraining parameters of black holes in gravity theories based on astrophysical  
observations

25

**Райимбаев Джавланбек Раджапбаевич**

Оценка параметров черных дыр в теории гравитации на основе  
астрофизических наблюдений

45

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

List of published works

Список опубликованных работ

53

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ASTRONOMIYA INSTITUTI  
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**RAYIMBAYEV DJAVLANBEK RADJAPBAYEVICH**

**ASTROFIZIK KUZATUVLAR ASOSIDA QORA O’RALAR  
PARAMETRLARINING GRAVITATSIYA NAZARIYALARIDAGI  
TAHLILI**

**01.04.02-Nazariy fizika**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO’YICHA FAN DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2022**

Fizika-matematika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida **B2022.3.DSc/FM203** raqami bilan ro'yxatga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti va Dissertatsiya Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.ifar.uz](http://www.ifar.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Axmedov Bobomurat Jo'raevich,**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdikamalov Askar Baxtiyarovich,**  
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim ХОДИМ

**Durmus Ali Demir (Sabanci Universiteti, Turkiya)**  
Dr., Professor, Sabanci Universiteti, Turkiya

**Sushant G. Ghosh (Nazariy Fizika Markazi, Hindiston)**  
Dr., Professor, Nazariy Fizika Markazi, Hindiston

**Yetakchi tashkilot:**

**Al Farabiy nomidagi Qozoq Milliy Universiteti**  
(Olmaota, Qozog'iston)

Dissertatsiya "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli Ilmiy kengashning 2022-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; tel.: 71 237-09-61.; e-mail: [info@ifar.uz](mailto:info@ifar.uz))

Dissertatsiya bilan "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; tel.: 71 237-09-61)

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2022-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**A.A. Abdujabbarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi  
o'rinbosari f.-m.f.d.

**E.X. Karimbayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi  
f.-m.f. bo'yicha PhD

**B.M. Narzilloev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi  
ilmiy seminar raisi f.-m.f.d.

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Mavzuning dolzarbligi.** Qora o‘ralar matematik nuqtai nazardan gravitatsion maydon tenglamalarining echimi bo‘lib, ilk bor Karl Shvartsschild tomonidan 1916 yil Eneynsheynning maydon tengamasi echimi, faqat massaga ega ob‘ekt sifatida olingan. Astrofizika tomondan, ular yulduzlar evolyutsiyasining eng oxirga bosqichida xosil bo‘luvchi relyativistik kompakt gravitatsion astrofizik ob‘ektlardir. Ular massalari ko‘ra o‘ta massiv qora o‘ralar, ular galaktika markazlarida joylashgan; o‘rtacha massali qora o‘ralar va ularning galaktikalarda tarqalganligi noaniq; va nihoyat, yulduz massali qora o‘ralar deb atalib asosan ular qo‘shaloq tizimlarida uchraydi. Yaqinda xodisalar gorizonti teleskopi yordamida ikkita o‘ta massiv, M87\* va O‘qotar A\* qora o‘ralarining soyalari tasvirini olishga va shu orqali ularning massalarini va aylanish parametrlari aniqlashga muvofiq bo‘lindi. Ammo, o‘rta va yulduz massali qora o‘ralar ko‘rish burchagi kichik bo‘lganligi sababli ularning tasvirini olish imkoni yo‘q. Ular asosan akkretsiya diskdagi nurlanishlar, xususan, kvazidavriy teblanish chastotalari orqaligina kuzatilishi va ularning massasi, zaryadi va spin parameterlarini aniqlash mumkin.

Ma‘lumki, qora o‘ra zaryadi ham xuddi aylanuvchi Kerr qora o‘rasining spini singari fotonsfera va akkretsiya diskini ichki orbitasi bo‘lgan ichki orbitasi radiusini kamaytiradi. Bu nuqtai nazardan, ularning qora o‘ra fazo-vaqt geometriyasiga ta‘siri o‘xshashdir. Umumiy nisbiylik nazariyasi ko‘plab astrofizik kuzatuvlarda tekshirilgan va tasdiqdan o‘tgan. Shunga qaramay, gravitatsiyaning boshqa, alternativ va modifikatsiyalangan nazariyalari ham kvazidavriy tebrashishlarning kuzatuv ma‘lumotlarini ishonchli turintira oladi. Bu esa umumiy nisbiylik nazariyasi va boshqa gravitatsiya nazariyalaridagi qora o‘ralar atrofidagi fazo-vaqt geometriyasida o‘xshashlik mavjudligini hamda ushbu o‘xshashliklarni kuzatuv ma‘lumotlari asosida farqlashni tadqiq etish nazariy astrofizikadagi dolzarb masalalardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Yurtimizda ham qora o‘ralar va ular atrofidagi optik hamda energetik jarayonlar xususan, akkretsiya diskidagi nurlanish mexanizmlarini o‘rganishga, shu bilan birgalikda, kuzatuv ma‘lumotlari asosida ularning parametrlarini tadqiq etishga oid ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishining vazifalari tasdiqlangan davlat normativ xujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish uchun chora-tadbirlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni va 2017 yil 18-fevraldagi PQ-2789 sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori talablariga mos keladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor**

**yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasining II ustuvor yo‘nalishi “Energetika, energiya va resurslarni tejash”ga muvofiq bajarildi.

### **Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

Qora o‘ralar akkretsiya diskidagi kvazidavriy chastotalarni paydo bo‘lish mexanizmlari, modellari va ularni turli gravitatsiya nazariyalari doirasida o‘rganish Yevropa (L.Rezolla, M.Abramovich, G. Torok, P. Bakala, Z. Stuklik, M va Kolosh), AQSh (S.Motta, L.Stella, M.Vietri, S.Spilberg, V.Uogoner) va dunyoning rivojlangan davlatlari (S.Kato, J. Fukue (Yaponiya), D.Vang, L.Cheng va M.Jang (Xitoy)) olimlari tomonidan o‘rganilgan.

Turli qora o‘ralar soyalarini nazariy tadqiq etish, ularni turli gravitatsiya nazariyalari doirasida o‘rganish ham bir qator dunyoning rivojlangan olimlari tomonidan o‘rganilgan (J.Schee, A.Ovgun, K. Jusufi, M.Jamil va hk.).

Respublikamizda ham umumnisbiylik nazariyasi, modifikatsiyalangan va muqobil gravitatsiya nazariyalari doirasida qora o‘ralar soyalarini nazariy tadqiq etish, qora o‘ralar atrofida zarralar tebranishlari B. Ahmedov, A.Abdujabbarov, B. Toshmatov, S.Shaymatov, A.Abdikamalovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ammo, qora o‘ralar soyalariga oid nazariy izlanishlar hamda kuzatuv ma‘lumotlari asosida qora o‘ralar va gravitatsiya modellarining parametrlariga cheklovlar olinmagan. Bundan tashqari, kuzatuvdagi kvazidavriy tebranishlarining kuzatuv ma‘lumotlari asosida muqobil gravitatsiya nazariyalarining parametrlari qiymatlariga, qora o‘ralar massalari va zaryadlariga chegaraviy qiymatlar olish usuli ishlab chiqilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi 2022 yil davomida O‘zRFA Astronomiya insititi va Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutlarining asosiy ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari hamda O‘zRFA Yadro fizikasi insititudagi F-FA-2021-510 raqanli “Modifikatsiyalangan gravitatsiyalar doirasida neytron yulduzlari yadro muhitini tadqiq etish” ilmiy loyihasi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** qora o‘ralar atrofidagi kvazidavriy tebranish chastotalari va qora o‘ralarning soyalar o‘lchamlaridan olingan kuzatuv ma‘lumotlari asosida qora o‘ralar va gravitatsiya nazariyalari parametrlarini tahlil qilish.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

- Aylanmaydigan qora o‘ralar atrofidagi kvazidavriy tebranishlar modellarini tekshirish;

- kvazidavriy tebranishlarni tadqiq etish orqali modifikatsiyalangan va kvantlangan gravitatsiya modellarini tekshirish;
- kvazidavriy tebranishlar kuzatuv ma'lumotlari asosida qora o'ra massasi, zaryadi va gravitatsiya nazariyalari parametrlariga cheklovlar olish;
- aylanadigan o'ta massiv qora o'ralar, jumladan M87 va o'qotar A\* soyalari o'lchamlari asosida ularning zaryadi va spin parametrlari cheklovlar olish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida kompakt relyativistik gravitatsion ob'ektlar – qora o'ralar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida kichik massali qo'shaloq tizimlardagi qora tuynuklar akkretsiyon diskidagi kvazidavriy tebranishlari va o'ta yuroqi massali qora tuynuklardan tasvirlari tanlangan.

**Tadqiqotning usullari** sifatida umumiy nisbiylik nazariyasidagi matematik apparatlar, jarayonlarni matematik modellarshirish va ularni sonli echish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- ilk bor kvazidavriy tebranish chastotalari yordamida zaryadli aylanmaydigan qora o'ralarining massasi va zaryadlariga chekli qiymatlar olingan;
- ilk bor kuzatuv ma'lumotlari asosida topilgan M87\* va Sgr A\* soylarining o'lchamlaridan foydalangan holga, ularning massalari va zaryadlari orasidagi bog'lashinishni aniqladik;
- ilk bor kvant gravitatsiyasining non-kommutativ qora o'ralar atrofida kvazidavriy tebranishlar chastotalari va ularning soyalari o'lchamlari ta'sirini o'lchashdagi xatoliklardan ancha kichik ekanligi ko'rsatildi;
- ilk bor ikki cho'qqili kvazidavriy tebranishlar kuzatuvlar ma'lumotlari asosida modifikatsiyalangan gravitatsiyada regular va singular qora o'ralarini farq qilish usuli ko'rsatildi;
- ilk bor qora o'ralar atrofidagi kvazidavriy tebranishlar asosida ular atrofidagi fazo-vaqtning muhim hususiyatlaridan biri bo'lgan akkretsiya diskining kuyi chegarasi radiuslari baholash mumkinligi ko'rsatildi;
- ilk bor kuzatuvlarda Kerr qo'ra o'rasi spini va zaryadlari hosil qiluvchi o'xshash o'xshash gravitatsiya effektlarini farqlovchi chegaraviy qiymatlar ko'rsatildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

- ilk bor kvazidavriy tebranishlar kuzatuv ma'lumotlaridan foydalangan holda

qora o‘ralarning zaryadi va massadari topilgan;

- ilk bor M 87\* va o‘qotar A\* o‘ta og‘ir qora o‘ralarining aylanish parametri va zaryadlari ularning soyalarining o‘lchamlari yordamida topilgan;
- ilk bor modifikatsiyalangan gravitatsiyasida regulyar va singulyar qora o‘ralarni kvazidavriy tebranishlar yordamida farqlash mumkinligi ko‘rsatilgan;
- ilk bor non-kommutativ kvant gravitatsiyasi effektlari qora o‘ralar atrofida kvazidavriy tebranishlar va ularning soyalarini o‘lchashdagi xatoliklardan kichik ekanligi ko‘rsatildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** quyidagilar bilan ta‘minlanadi:

- nisbiylik nazariyasining zamonaviy usullari va nazariy fizika hamda yuqori samarali sonli usul va algoritmlari qo‘llanildi;
- olingan nazariy natijalar kuzatuv ma‘lumotlari va boshqa mualliflarning natijalari bilan tekshirildi; xulosalar kompakt gravitatsion ob‘ektlar maydon nazariyasining asosiy qonuniyatlariga juda katta aniqlik bilan mos keladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** shundan iboratki:

- olingan tadqiqot natijalari yulduz massali qora o‘ralar parametrlarini va ular atrofida fazo-vaqt hususiyatlarini shu bilan birgalikda kvazidavriy tebranishlarning akkretsiya diskida xosil bo‘lish fizik mexanizmlarini;
- qora o‘ralar parameterlariga olingan chekli qiymatlar ular atrofida fazo-vaqt gravitatsiyasini o‘rganish imkonini beradi hamda gravitatsiya effektlari muhim ahamiyatga ega ekanini izohlash imkonini berdi;
- kuzatuv ma‘lumotlari asosida modifikatsiyalan va kvantlangan gravitatsiya nazariyalarini tekshirishda qo‘llash mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:**

- Qora o‘ralar massalari va zaryadlarini kvazidavriy tebranishlar kuzatuv ma‘lumotlari asosida aniqlash bir qator mualliflar tomonidan qorong‘i materiya hususiyatlarini tekshirishda joriy etilgan (The Astrophysical Journal Vol.935,91, (2022), Progress of Physics, Volume 70, issue 9-10, 2200053, (2022), Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, Volume 09, id 061, (2022), European Physics Journal C, Volume 82, id 636 (2022), Progress of Physics, Volume 70, Issue 9-10, id 2200053, (2022), Universe Volume 8, issue 3, id 182 (2022)). Olingan natijalar qora o‘ralar atrofida qorong‘i materiyaning parametrini kvazidavriy tebranishlar asosida tahlil qilish imkonini bergan.
- Qora o‘ralar soyalarini kuzatuv ma‘lumotlari asosida tahlil qilish va ularning parametrlarini aniqlashga oid natijalar bir qator mualliflar tomonidan turli

gravitatsiya modellari ularning soylari o'Ichamlaridan olingan kuzatuv ma'lumotlari asosida tahlil qilishda joriy etilgan (Chinese Journal of Physics Vol. 78, pp.141-154, (2022), Annals of Physics Vol.441, 168892,(2022), Universe, Volume 8, issue 10, id 536 (2022), Physics, Volume 4, issue 4, pp.1318-1330 (2022), European Physics Journal C, Volume 82, id 831 (2022), Annals of Physics, Volume 441, id 168892 (2022)). Olingan natijalar aylanuvchi zaryadlangan qora o'ralar atrofidagi foton orbitalarini va ularning soylarini tahlil qilishda ishlatilgan.

**Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi:** Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta mahalliy konferentsiyalarda va bir necha bor O'zbek-Qozoq haftalik ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi:** Dissertatsiya natijalari bo'yicha 20 dan ziyod ilmiy ish, shu jumladan OAK ro'yhatiga kiruvchi halqaro ilmiy jurnallarda 16 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya 117 varor bo'lib asosiy to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va uning ahamiyati, ishning maqsad va vazifalari hamda undagi ilmiy va amaliy yangiliklar ko'rsatib o'tilgan bo'lib shu bilan birga olingan natijalarning ahamiyatlari muhokama etilgan.

I bob “**Kvazidavriy tebranish kuzatuv ma'lumotlari yordamida qora o'ralar zaryadlariga limitlar olish**” deb nomlangan bo'lib, unda zaryadli qora o'ralar atrofida sinov zarralari harakati va ularning turg'un aylana orbitalardagi kichik tebranishlari o'rganish hamda ularni kvazidavriy chastotalariga qo'llash, shu bilan birga kvazidavriy tebranishllar kuzatuv ma'lumotlari asosida qora o'ralar massalari va zaryadlarini aniqlasha bag'ishlangan.

Zaryadlangan statik qora o'ralar atrofidagi fazo-vaqt metrikasi quyidagicha yoziladi  $ds^2=f(r)dt^2 +dr^2 / f(r)+r^2 d\theta^2 +r^2 \text{Sin}^2\theta d\phi^2$  (1.1) bu yerda  $f(r)$  metrik funktsiya va u zaryadli qora o'ralar quyidagicha

|                                     |                                              |
|-------------------------------------|----------------------------------------------|
| Aylanmaydigan zaryadli qora o'ra    | $f(r)$                                       |
| Reissner-Nordstrom (RN) qora o'rasi | $1-2M/r +Q^2/r^2$                            |
| Bardeen qora o'rasi                 | $1-2M/r \Upsilon^{-3}$                       |
| Ayon-Beato-Garcia (ABG) qora o'rasi | $1-2M/r \Upsilon^{-3}+Q^2/r^2 \Upsilon^{-4}$ |
| Regulyar qora o'ra (model)1         | $1-2M/r \text{Exp}(-Q^2/(-2Mr))$             |
| Regulyar qora o'ra (model)2         | $1-2M/r (1+Q/r)^n$                           |

1-jadval: Zaryadlangan qora o'ralar metrik funksilarini

bu yerda  $\Upsilon^2=1+ Q^2/r^2$  , Q va M qora o'ra zaryadi va massasi.

Qora o'ralar ega bo'lishi mumkin bo'lgan eng katta zaryad va xodisalar gorizontining eng kichik qiymatining  $f(r)$  funksiyaning o'zi va uning radial koordinata bo'yicha olingan hosilasi nolga teng bo'ladigan qiymatlar orqali quyidagicha topiladi. Hodisalar gorizoniting eng kichik, ya'ni zaryad extremal bo'lgandagi eng kichik qaymati va zaryadning extramal qiymatlari bo'yicha olingan natijalarni yuqorida keltirilgan turli zaryadli qora o'ralar uchun quyida jadval ko'rinishida taqdim qilindi.

| Aylanmaydigan zaryadli qora o'ra    | $Q_{\text{extr}}/M$ | $(r_h)_{\text{min}}/M$ |
|-------------------------------------|---------------------|------------------------|
| Reissner-Nordstrom (RN) qora o'rasi | 1                   | 1                      |
| Bardeen qora o'rasi                 | 0.7698              | 1.08866                |
| Ayon-Beato-Garcia (ABG) qora o'rasi | 0.634181            | 1.00504                |
| Regulyar qora o'ra (model)1         | 1.21306             | 0.735759               |
| Regulyar qora o'ra (model)2 (n=3)   | 0.296296            | 0.592593               |
| Regulyar qora o'ra (model)3 (n=4)   | 0.210937            | 0.632812               |

2-jadval: Zaryadlangan qora o'ralarning maksimal zaryadi va mos hodisalar gorizonti radiusining qora o'ra massasiga normallashtirilgan qiymatlari Biz, sinov zarrasi uchun Lagrange zichligi

$$2L_p = mg_{\alpha\beta} x^\alpha x^\beta.$$

ko'rinishda ifodaladik. Uning harakatidagi energiyasi va burchak momentini Euler-Lagrange tenglamasi orqali quyidagicha aniqlaymiz

$$g_{tt} \dot{t} = -\varepsilon, g_{\phi\phi} \dot{\phi} = L.$$

Bunda zarralarning radial harakati uchun effektiv potentsial quyidagicha topildi:

$$V_{\text{eff}} = f(r) \left(1 + \frac{L^2}{r^2}\right)$$

Malumki, aylana orbitalar uchun  $V_{\text{eff}} = \varepsilon$  va  $V_{\text{eff}}' = 0$  shartlari bajarilishi kerak, va bunda, aylana orbitalar uchun zarralar energiya va burchak momenti quyidagi ifoda bilan topiladi:

$$\varepsilon^2 = \frac{2f(r)^2}{2f(r) - rf'(r)} \quad \text{va} \quad L^2 = \frac{r^3 f'(r)}{2f(r) - rf'(r)}$$

Aylana orbitalarning turg'unligi uchun  $V_{\text{eff}}'' \geq 0$  shart bajarilishi kerak va ichki turg'un aylana orbita (ITAO)larining radiusi quidagi tenglamaning echimi sifatida aniqlanadi:

$$f'(r) \left(2r \frac{f'(r)}{f(r)} - 3\right) - rf''(r) = 0.$$


Zarralarning aylana orbitalaridagi burchak tezligi ya'ni Kepler chastotalari  $\Omega_K = d\phi/dt$  (1) ifodada berilgan metrik tenzor (1) uchun quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Omega_K = \sqrt{\frac{f'(r)}{2r}}.$$

Ma'lumki, zarralarning turg'un aylana orbitalari atrofidagi kichik og'ishi uning ushbu orbitalar atrofida vertikal va radial yo'nalishlarda kichik tebranishlar xosil qilishiga olib keladi. Ushbu yo'nalishlardagi tebranishlar chastotalari uchun ifodalar sferik simmetrik bo'lgan fazo-vaqtda quyidagi sodda ko'rishishga keladi:

$$\Omega_r = \Omega_K \sqrt{\left(3 + \frac{rf''(r)}{f'(r)}\right)f(r) - 2rf'(r)}, \quad \Omega_\theta = \Omega_\phi = \Omega_K.$$


Ushbu fundamental chastotalarni Hz larda ifodalash uchun  $c^3/2\pi GM$  ko'paytiramiz (bu yerda  $c$  yorug'likni vacuumdagi tezligi va  $G$  gravitatsiya doimiysi). Ko'pchilik modellarda kvazidavriy tebranishlarning paydo bo'lish mexanizmi fundamental chastotalar bilan tushintiriladi. Masalan, relativistik presetsiya (RP) modeliga ko'ra ikki cho'qqili QPO ning uqori chastotasi Kepler chastotasi va quyisi esa vertical va radial chastotalarning farqi sifatida tushintiriladi. QPOLarning yuqori va quyi chastotalaring mumkin bo'lgan barcha qiymatlari to'plami matematik jihatdan radial koordinataning ISCO dan to cheksizlikkacha oraliqda topiladi. Quyida rasmda zaryadlangan qora o'ralar atrofida QPOLarning quyi va yuqori chastotalari uchun mumkin bo'lgan qiymatlari keltirilgan. Grafikdan shuni ko'rish mumkinki, masalan Bardeen qora o'rasi atrofida xosil bo'lishi mumkin bo'lgan chastotalar qiymatlar ko'k va kulrang chiziqlar orasida joylashadi. Undan tashqarida aniqlangan QPO manbai Bardeen qora o'rasi bo'la olmaydi. Xuddi shunday tahlilni boshqa zaryadli qora o'ralar uchun ham ko'rish mumkin.



1-rasm: Ikki cho'qqili QPOLarning yuqori va quyi chastotalari diagrammasi. Bu grafikda yuqorida keltirilgan maksimal zaryadli qora o'ralar uchun aniqlangan. Bunda qora o'ra massasi 10 Quyosh massasiga teng deb tanlab olingan.

Shu yo'l bilan biz zaryadli qora o'ralarni qaysi modeli kuzatuvdagi QPO manbaiga nomzod qora o'ra bo'lishi mumkinligi aniqlay olamiz. Muhim jihati shundaki, uning zaryadi, yuqorida aniqlangan kritik qiymatdan oshib ketmasligi lozim. Bundan tashqari, biz zaryad va spin parametrlarining gravitatsiyaviy

effektlerini taqqoslash maqsadida qora egri chiqiz orqali shunday najilarni spini 0.8 bo'lgan Kerr qora o'rasi uchun ham keltirdik. Bu shuni ta'kidlaydiki, qora o'ralar zaryadi uning modeliga bog'liq holda Kerr qora o'rasining spinini qandaydir qiymatigacha effektini bera oladi. Keyingi tahlillar uchun, misol tariqasida chastotalari  $168 \pm 5$  Hz va  $113 \pm 3$  Hz bo'lgan GRS 1915-105 mikrokvazardagi QPO obyektini tanlaymiz, va  $v_U(M; r, Q) = v_U^{ob}$  &  $v_L(M; r, Q) = v_L^{ob}$  munosabatlari yordamida ushbu QPO signallari mikrokvazar markazidan qancha masofada joylashganligini aniqlash mumkin.




2-rasm: Zaryadlangan qora o'ralar atrofida hosil bo'luvchi yuqori va quyi chastotalari 3:2 nisbatda bo'lgan QPO larning orbita radiuslarining ularni zaryadlariga bog'lanish grafigi

Yuqoridagi rasmda QPO orbitasi radiusini markazdagi qora o'ra zaryadiga bog'lanishi ko'rsatilgan. Avvalo shuni takidlash kerakki, ushbu orbita radius  $Q=0$  da yani Shwarzschild qora o'rasi holida uning ISCO sidan uzoqroqda joylashadi. Ammo ular orasidagi masofa kuzatuvlarda aniqlanadigan hatoliklarga yaqinroq qiymat berishi mumkin. Qora o'ra zaryadi ortishi bilan QPO va ISC radiuslari kamayadi, jumladan ular masofa ham kamayib bu masofa aniqlangan xatolik tartibida bo'lib qoladi, va shu yo'l bilan qora o'ralar atrofidagi ISCO ya'ni akkretsiya diskining ichki chegarasini o'lchash mumkinligini ko'rsata olamiz. Endi, biz GRS 1915-105 mikrokvazardagi QPO kuzatuv ma'lumotlaridan foydalanib markazdagi qora o'ra massasi va ozaryadining qiymatini aniqlaymiz.

Bunda, xatoliklarni inobatga olishning  $\chi^2$  usulidan va unda Bayesian yaqinlashidan foydalanib xatolikni  $1 \sigma$ ,  $2 \sigma$  va  $3 \sigma$  aniqligidagi, ya'ni mos holda  $\chi^2 = 0.68$ ,  $0.86$  va  $0.95$  qiymatlardan foydalanamiz. Bunda quyidagi ifodadan foydalanamiz:

$$\chi^2(r, M, Q) = \frac{(v_U(r, M, Q) - v_U^{ob})^2}{\sigma_U^2} + \frac{(v_L(r, M, Q) - v_L^{ob})^2}{\sigma_L^2}$$

va natijalarni quyidagicha tasvirladik



3-rasm: GRS 1915-105 mikrokvazaridagi qora o'raning massasi va zaryadiga turli zaryadlandi qora o'ra modellarida  $\chi^2$  usuli bilan  $1\sigma$ ,  $2\sigma$  va  $3\sigma$  aniqligidagi olingan qiymatlar.

Grafiklardagi eng mos qiymatlar (grafijda “Best fit value” deb ko'rsatilgan qora nurta) ushbu yaninlashish qoidasiga binoan barcha parametrlarni minimumga olib ketgan holda quyidagicha topiladi:

| BHs        | $M/M_{\odot}$           | $Q/M_{\odot}$          | $Q/M$ |
|------------|-------------------------|------------------------|-------|
| RN BH      | $12.23^{+0.02}_{-0.05}$ | $1.64^{+0.07}_{-0.04}$ | 0.13  |
| Bardeen BH | $13.25^{+0.06}_{-0.04}$ | $1.93^{+0.05}_{-0.03}$ | 0.15  |
| ABG BH     | $12.56^{+0.06}_{-0.05}$ | $1.31^{+0.02}_{-0.07}$ | 0.104 |
| RBH1       | $11.19^{+0.07}_{-0.06}$ | $2.25^{+0.06}_{-0.05}$ | 0.2   |
| RBH2       | $10.06^{+0.05}_{-0.07}$ | $1.03 \pm 0.05$        | 0.102 |
| RBH3       | $10.92^{+0.08}_{-0.07}$ | $0.65^{+0.06}_{-0.05}$ | 0.06  |

3-jadval: GRS 1915-105 mikrokvazaridagi qora o'raning massasi va zaryadiga turli zaryadlandi qora o'ra modellarida  $\chi^2$  usuli bilan olingan eng mos qiymatlar.

Olingan natijalardan ko'rish mumkinki, GRS 1915-105 mikrokvazardagi joylashgan qora o'raning zaryadini o'zining massasiga nisbati kichik bo'lib uning qiymati 1-2 Quyosh massasi atrofida va massasi esa taxminan 10-13 Quyosh massasi oralig'ida.

Xuddi shunday hisoblashlarni extremal zaryadlangan qora o'ralar uchun

amalga oshiramiz, va ushbu zaryad miqdorining qora o'ra fazo-vaqtiga ko'rsatadigan gravitatsiya ta'siri bilan bir hil effekt ko'rsata oladigan Kerr qora o'rasining spin parametr qiymatlari ustida olib bordik va quyidagi jadvaldagi qiymatlarni oldik,

| Maksimal zaryadli qora o'ra         | $Q_{\text{extr}}/M$           | $(r_h)_{\text{min}}/M$ |
|-------------------------------------|-------------------------------|------------------------|
| Reissner-Nordstrom (RN) qora o'rasi | $17.0079^{+0.5217}_{-0.4916}$ | ~0.4884                |
| Bardeen qora o'rasi                 | $13.9495^{+0.4698}_{-0.4131}$ | ~0.2927                |
| Ayon-Beato-Garcia (ABG) qora o'rasi | $15.3169^{+0.4698}_{-0.4476}$ | ~0.3919                |
| Regulyar qora o'ra (model)1         | $21.1479^{+0.6847}_{-0.6117}$ | ~0.6671                |
| Regulyar qora o'ra (model)2 (n=3)   | $19.9994^{+0.6135}_{-0.5780}$ | ~0.7687                |
| Regulyar qora o'ra (model)3 (n=4)   | $23.6358^{+0.7250}_{-0.4831}$ | ~0.7392                |

4-jadval: Maksimal zaryadlangan GRS 1915-105 mikrokvazaridagi qora o'raning massasi va maksimal zaryad hosil qila oladigan gravitatsion effekti bera oladigan spin parameter

II bob “**Kuzatuv ma'lumotlari asosida zaryadlangan M87 va O'qotar A\* o'ta og'ir qora o'ralarining spini va zaryadlariga cheklovlar olish**” deb nomlanadi va ushbu bobda qora o'ralarning soyalari o'lchamlaridan olingan kuzatuv ma'lumotlari asosida ularning spin va zaryad parametrlari orasida bog'lanishlar Gauss Bonnet ( $\gamma$ ) va AdS parametrlari ( $l$ )ning turli hil qiymatlarida aniqlangan.

Glavan va Lin ilk bor massasiz graviton tarqala oladigan 4 o'lchovli fazo-vaqt uchun umumiy o'zgartirilgan gravitatsiya taklif qildilar. Ular GB bog'lanish parametri hadi koeffisientini  $d \rightarrow d/(d - 4)$  ko'rinishida o'zgartirib, so'ngra  $d \rightarrow 4$  ko'rinishda olib, statik va sferik simmetrik qora o'ra yechimini taklif qildilar. Natijada qora o'raning notrivial statik va sferik simmetrik yechimlari kashf etilishiga olib keladi. Bunday qora o'ralar GB gravitatsiya tabiatini teksirish uchun qulay platformani ta'minlaydi. Sferik koordinatalarda, qora o'raning metrikasi quyidagicha yoziladi:

$$ds^2 = -f(r)dt^2 + 1/f(r)dr^2 + r^2d\theta^2 + r^2\text{Sin}^2\theta d\phi^2$$

bu yerda

$$f(r) = 1 + \frac{r^2}{2\gamma} \left[ 1 - \sqrt{1 + 4\gamma \left( \frac{2M}{r^3} - \frac{Q^2}{r^4} - \frac{1}{l^2} \right)} \right]$$

Biz ushbu metrikadan Newman Janis algoritmi yordamida yangi AdS fazosidagi EGB nazariyasida aylanuvchi hamda zaryadlangan qora o'ra yechimini quyidagi ko'rinishda olamiz:

$$ds^2 = -\frac{\Delta}{\rho^2} (dt - a\text{Sin}^2\theta d\phi) + \frac{\rho^2}{\Delta} dr^2 + \rho^2 d\theta^2 + \frac{\text{Sin}^2\theta}{\rho^2} ((r^2 + a^2)d\phi - a dt)^2$$

bu yerda  $\Delta = a^2 + r^2(1 + f(r))$  va  $\rho^2 = r^2 + a^2 \cos^2 \theta$

Ushbu aylanuvchi fazo-vaqtda fotonlarning harakatini biz quyidagi Hamilton-Jacobi tenglamasi yordamida o'rganamiz:

$$\frac{\partial H}{\partial \tau} + \frac{1}{2} g^{\mu\nu} \frac{\partial H}{\partial x^\mu} \frac{\partial H}{\partial x^\nu} = 0,$$

bu yerda biz H - Hamilton funksiyasini saqlanuvchi kattaliklarga nisbatan quyidagicha yozamiz:

$$H = H_r(r) - Et + L\phi + H_\theta(\theta) + \frac{1}{2} m^2 \tau.$$

Foton uchun saqlanuvchi harakat integralli: energiyasi  $E/m = g_{t\mu} \dot{x}^\mu$

va impulslari  $L/m = g_{\phi\mu} \dot{x}^\mu$  ga teng. Yuqoridagi H-J tenglamasidan foton uchun

harakat tenglamalarini va ekvatorial tekislik uchun effective potensial quyidagi ko'rinishda aniqlaymiz:

$$V_{eff}(r) = \Delta[(\xi - a)^2 + \eta] - [-a\xi + (a^2 + r^2)]^2$$


bu yerda  $\eta = \kappa/\varepsilon^2$  and  $\xi = L/\varepsilon$ .

Turgun aylana orbitalari uchun  $V_{eff}(r_{ph}) = V'_{eff}(r_{ph}) = 0$  shartini qanoatlantiradi va u orqali biz qora o'raning soyasini aniqlov tekislik tenglamalarini quyidagicha topiladi:

$$\alpha = \frac{4r\Delta - \Delta'(r^2 + a^2)}{a\Delta'} \quad \text{va} \quad \beta^2 = \frac{r^2[16\Delta(a^2 - \Delta) - r^2\Delta'^2 + 8r\Delta\Delta']}{a^2\Delta'^2}$$

Xosil bo'lgan soyaning radiusi  $R_{sh}^2 = \alpha^2 + \beta^2$  ifoda yordamida aniqlanadi.

Kuzatuvlarda o'ta og'ir qora o'ralar M87\* (EHT Collab. 2019) va Sgr A\* (GRAVITY Collab. 2022) larning tasvirlari olingan va ulardning burchak o'lchamlari mos holda quyidagicha aniqlangan:  $42 \pm 3$  mk arc sec va  $51.8 \pm 2.3$  mk arc sec. Biz ushbu o'ta og'ir qora o'ralarning tasvirlarining burchak o'lchamlari, ulargacha masofalar va ularng ko'rinish burchaklaridan foydalangan holda ushbu qora o'ralar massalariga normallashtirilgan zaryadi va aylanish momentlarini aniqlaymiz. Bunda biz kuzatuvdagi xatoliklarni inobatga olmagan holda kuzatuv ma'lumotlarining asosiy qiymatlaridan foydalandik.



4-rasm: O'ta o'gir qora o'ralar M87\* va Sgr A\* zaryadi va aylanish parametrlari orasidagi bog'lanish.

Ushbu rasmda biz GB parametrining musbat (qizil), manfiy (ko'k) va nol (GR) holatlari uchun M87\* (chapdagi panel) va Sgr A\* (o'ngdagi panel) qora o'ralarining zaryadi va spin parametrlari nisbati ko'rsatilgan. Rasmdan shuniki ko'rish mumkinki, qora o'ralar zaryadi ortishi bilan ularning spin parametrlari kamayadi. Bundan tashqari, GB parametrining musbat qiymatida uning gravitatsiya effekti spin effektini pasaytirishi, manfiy GB parametr esa oshirishini ko'rsatadi. Olingan qiymatlar, ularning spin parametrlarini boshqa astronomik kuzatuvlarda olingan qiymatlariga mos kelishi ko'rsatildi, ya'ni M87\* qora o'rasining aylanishi  $a \simeq 0.9M$  va Sgr A\*niki esa taxminan  $a \simeq 0.44M$

III bobda kvantlangan gravitatsiya nazariyasining kvazidavriy tebranishlar chastotalariga va qora o'ralari soyalari o'lchamlariga ta'siri tekshirilgan va "**Kvant qora o'ralarida kvazidavriy tebranishlar va qora o'ralar soyalari**" deb nomlanadi.

Biz ushbu bobda Non kommutatik (NC) gravitatsiyasida olingan qora o'ra nuqtaviy bo'lmagan statik sferik simmetrik yechim ilk bor quyidagi massa funksiyasi, ya'ni delta Dirac funksiyasi bilan Gauss funksiyasiga o'xshash yangi taqsimot funksiyasiga almashtirish orqali olingan:

$$\rho(r) = \frac{M}{(4\pi\theta)^{3/2}} e^{-r^2/4\theta}$$

ifodadagi  $\theta$  - NC parametri. Aylanmaydigan NC qora o'rasi atrofidagi fazo-vaqt geometriyasining metrik funksiyasi quyidagi ko'rinishda olingan:

$$f(r) = 1 - \frac{4M}{r\sqrt{\pi}} \gamma\left(\frac{3}{2}, \frac{r^2}{4\theta}\right)$$

bunda, pastki to'liq bo'lmagan gamma funksiyasi

$$\gamma\left(\frac{3}{2}, \frac{r^2}{4\theta}\right) = \int_0^{r^2/4\theta} \sqrt{h} e^{-h} dh.$$

Bu NC qora o'rasi regular qora o'ra bo'lib uning metrik funksiyasi nol qiymati

qora o'raning gorizontini belgilab beradi va uning birinchi hosilasi NC parametrining kritik va gorizont radiusining eng kichik qiymatini topishga yordan beradi:  $\Theta_{cr} = 0.2765M^2$  va  $r_{min} = 1.5873M$ .

Biz zarralarning NC qora o'rasi atrofidagi harakatini va ularning turg'ur orbitalari atrofida radial, orbital va vertial tebranishlarini 1-bobda ko'rsatilgan standard usulda o'rganamiz. Zarralarning Kepler orbitalaridagi burchak tezliklari


$$\Omega_K = \frac{\sqrt{M}}{\sqrt{2}\sqrt{\pi}r^{3/2}} \sqrt{4\gamma\left(\frac{3}{2}, \frac{r^2}{4\Theta}\right) - \frac{r^3}{\Theta^{3/2}} e^{-\frac{r^2}{4\Theta}}}.$$

ifoda orqali aniqlaniladi. Vertikal tebranishlar chastotalari ham Kepler chastotalariga teng bo'ladi, ammo radial chastotasi esa, ya'ni

$$\begin{aligned} \Omega_r = \Omega_K & \left\{ \left[ 4\pi\Theta^{\frac{5}{2}}r^2e^{\frac{r^2}{2\Theta}} \text{Erf}\left(\frac{r}{2\sqrt{\Theta}}\right) - 2\sqrt{\pi}\Theta r^3e^{\frac{r^2}{4\Theta}} \right. \right. \\ & \times (2\Theta + r^2) \left. \right]^{-1} \left[ r^5 \left( \sqrt{\pi}e^{\frac{r^2}{4\Theta}} (r^2 - 6\Theta) - \frac{4Mr^2}{\sqrt{\Theta}} \right) \right. \\ & - 4e^{\frac{r^2}{4\Theta}} \gamma\left(\frac{3}{2}, \frac{r^2}{4\Theta}\right) \left( 24\Theta^{5/2}Mr e^{\frac{r^2}{4\Theta}} \gamma\left(\frac{3}{2}, \frac{r^2}{4\Theta}\right) \right. \\ & \left. \left. + Mr^4 (r^2 - 14\Theta) - 2\sqrt{\pi}\Theta^{5/2}r^2e^{\frac{r^2}{4\Theta}} \right) \right] \left. \right\}^{\frac{1}{2}}, \end{aligned}$$


$$\Omega_\theta = \Omega_\phi = \Omega_K.$$

Ma'lumki, QPO signallarining paydo bo'lishi zarralarning radial va vertial tebranishlarining fundamental chastotalari bilan bog'liq bo'lib ularning hosil bo'lishida fazo-vaqt geometriyasi ham ro'li inobatga olish lozim. Ushbu maqsadda, biz NC parametrining QPO signalli chastotalariga ta'sirini kuzatuv ma'lumotlari asosida RP va WD (warped disk-qiymshiq disk) modellari doirasida tekshiramiz. Qora o'ra atrofida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan ikki cho'qqili QPOlarning barcha yuqori va quyi chastotalari orasidagi bog'lanishlar NC parametri kritik qiymati, Schwarzschild qora o'rasi va spin parametri  $a=0.1M$  Kerr qora o'ralari uchun quyidagi grafikda ko'rsatilgan.




5-rasm. NC qora o'rasi atrofida hosil bo'luvchi ikki cho'qqili QPOLarning yuqori va quyi chastotalar diagrammasi NC parametrining  $\Theta=0.27M$  qiymatida.

Grafikdan ko'rish mumkinki har ikala modelda ham NC parametrining ta'sir faqatgina yuqori chastotalardagina sezilarli, ammo xosil bo'lgan chastotalarning Schwarzschild limitiga nisbatan eng katta farqi ham 5-10 Hzdan kichik bo'lib u esa o'lchashlardagi xatoliklardan kichik va yoki tartibida. Shu nuqtai nazardan, NC parametrining QPO chastotariga ta'siri deyarli yo'q deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, sonli usuldagi hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, NC parametrning kritik qiymati Kerr qora o'rasining spinini  $a/M=0.052$  qiymatining ta'siricha QPO chastotalariga gravitatsion effekt ko'rsata oladi. Bunday spinli Kerr qora o'rasi astrofizik jihatda aylanmaydigan deb hisoblaniladi.



6-rasm. NC qora o'rasi atrofidagi QPO orbitalari radiusining NC parametriga bog'lanishi, yuqori va quyi chastotalarining turli qiymatlari uchun.

Bundan tashqari, sonli usullar yordamida shuni ko'rsatildiki, NC parametrining ISCO va QPO orbitalari radiusiga ta'siri ham inobatga olmasa ham bo'ladigan tartibda kichik, boshqacha aytganda deyarli yo'q.



7-rasm: Shwarzschild va NC kvant qora o'ralarining soyasi (chapda) va fonsfera radiusning NC parametriga bog'lanishi (o'ngda).

Kvanlangan gravitatsiyaning NC modelidagi fazo-vaqtning qora o'ra atrofidagi foton harakati va qora o'raning soyasiga ta'siri ham o'rganildi. Bunda NC parameterning nolga yaqin qiymatlarida fonsfera radiusiga ta'siri deyarli ko'rinmaydi, ammo kritik qiymatlarga yaqin qiymatlarda fonsfera biroz kamayadi. Biroq uning eng kichik qiymati ham Schwarzschild qora o'rasi fonsferasidan 0.8 % ga kichik. Kuzatuvlarda esa, M87\* qora orasi soyasini o'lchashdagi xatolik 7% va Sgr A\* niki esa 4% dan kichikni tashkil qiladi, ammo NC parametr qora o'ra soyasi o'lchamlarini 2% gagina kichraytira oladi va bu uning ta'sirini kuzatuv ma'lumotlari orqali ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi.

IV bob “**Modifikatsiyalangan gravitatsiya nazariyasidagi regulyar va singulyar qora o'ralarni farqlashda kvazidavriy tebranish chastotalari orqali tahlil qilish**” deb nomlanadi va bunda QPO kuzatuv ma'lumotlari asosida regulyar va singulyar qora o'ralarni farqlash ko'rsatilgan.

Ma'lumki, Umumiy nisbirlik nazariyasi doirasi vakuum yechimlar fizik singulyarlikka ega ya'ni  $r=0$  da fazo-vaqt cheksiz egrilikka ega bo'ladi. Ammo, gravitatsiyani boshqa, jumladan kvant gravitatsiyasi yoki umum nisbiylik nazariyasida ham noxiziqli elektrodikamika mavjudligida regulyar qora o'ra olish mumkin. Modifikatsiyalangan gravitatsiya nazariyasi ham Einsteinning umumiy nisbiylik nazariyasining sklyar-vektor-tenzor maydon, boshqacha aytganda massiv skalyar va vektor maydon ishtirokidagi modifikatsiyasi bo'lib regulyar shu jumladan singulyar qora o'ra yechimlarini ham olish mumkin. Bu yechimlar Schwarzschild MOG va regulyar MOG qora o'ralari yechimlari deb ataladi. Bu yechimlarning metrik funksiyalari esa mos ravishda quyidagicha ifodalanadi:


